

TO‘QIMACHILIK TARMOG‘INI YANADA RIVOJLANTIRISH
BO‘YICHA QO‘SHIMCHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida to‘qimachilik sohasida eksport imkoniyatlari va zaxiralarni
ishga solish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

To‘qimachilik mamlakatimiz iqtisodiyoti hajmining 3 foizini, sanoatning 14 foizini yaratayotgan yirik tarmoqdir. Bu yo‘nalishda 500 mingdan ortiq odam ish bilan band. So‘nggi besh yilda 3,5 milliard dollarlik 396 ta korxona ishga tushdi. Ishlab chiqarish hajmi 10 milliard dollarga yetdi.

Lekin dunyo bozoridagi o‘zgaruvchan vaziyat, talab va narx pasayishi sohani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tezkor choralar ko‘rishni taqozo etmoqda.

So‘nggi uch yilda jahonda paxta narxi tonnasiga o‘rtacha 3 ming dollardan 1,5 ming dollarga tushdi. Bunga moslashish uchun 2022-2023-yillar uchun paxta xomashyosiga berilgan imtiyozli kredit 3 marta uzaytirildi, o‘tgan yili har bir tonnaga 1 million so‘mdan subsidiya berildi.

Ko‘plab to‘qimachilik korxonalarining tijorat kreditidan qarzдорligi mavjud. Atigi 16 foiz korxona xalqaro sertifikatga ega. Oqibatda ularning tashqi bozorda raqobat qilishi qiyin kechmoqda.

O‘zbekistonga nisbatan “paxta boykoti” bekor qilinganiga ancha bo‘ldi. Shuningdek, mamlakatimiz Yevropaga bojsiz eksport qilish imkonini beruvchi “GSP+” imtiyozlar tizimiga qo‘shilgan.

Lekin brendlar bilan hamkorlik va eksport miqyosi bunga yarasha emas.

Sohadagi shu kabi muammolarni o‘rganish uchun Prezident topshirig‘iga ko‘ra, 200 dan ortiq tadbirkorlar bilan muloqot qilindi. Yig‘ilishda ularning tahlilidan kelib chiqib, yangi imkoniyat va vazifalar belgilandi.

Avvalo, moliyaviy sog‘lomlashtirish va tannarxni kamaytirish masalalariga e‘tibor qaratildi.

Bu yil klasterlarning 2022-2023-yillar hosili uchun kreditdan qarzдорligi garov qo‘yish sharti bilan besh yilgacha uzaytirilgan edi. Endi 1-avgustdan garovi tayin klasterlar faqat asosiy qarzni to‘laydi. Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi va banklarga hisoblanadigan foizlar esa asosiy qarz to‘liq qoplanganidan keyin undiriladi. Agar klasterlar ham asosiy qarz, ham foizini o‘z vaqtida to‘lasa, foizning jamg‘armaga ketadigan qismining yarmi tadbirkorga qaytariladi.

Shuningdek, klasterlarga 2022-2023-yillar hosili uchun berilgan kredit bo‘yicha 1-avgust holatiga yuzaga kelgan 377 milliard so‘mlik penyadan voz kechiladi. Tijorat kreditidan majburiyati bo‘lgan 144 ta korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirishga ko‘maklashiladi.

Bu yilgi paxta hosilini o‘z vaqtida terib olish uchun fermerlarga tonnasiga 1 million so‘mdan subsidiya beriladi. Korxonalar o‘z mablag‘i hisobidan paxta yetishtirsa yoki xarid qilsa, xomashyo qiymatining 10 foizi qoplab beriladi.

To‘qimachilik zanjiridagi barcha korxonalarga ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz qilib belgilanadi. Bunda ijtimoiy reyestr bo‘yicha talab bekor qilinadi, umumiy faoliyatda to‘qimachilik ulushiga talab esa 90 foizdan 70 foizga tushiriladi.

O‘z xodimlarining farzandlari uchun bog‘cha tashkil qilgan korxonalarga, xuddi xususiy bog‘chalardagi kabi har bir tarbiyalanuvchiga subsidiya ajratiladi.

Ip-kalavanning tannarxiga elektr energiyasi qiymati ham ta‘sir qilyapti. Shu bois, endi korxonalarga o‘z ehtiyoji uchun o‘rnatilgan quvosh panellarini tarmoqqa ulashga ruxsat beriladi.

Bunday imkoniyatlar faoliyatni rivojlantirish uchun tayanch bo‘ladi. O‘zida tolni qayta ishlash quvvati yo‘q klasterlar ip-yigiruv korxonalari bilan samarali kooperatsiya tizimini yo‘lga qo‘yishi zarur. Aks holda, keyingi yildan ularning klaster maqomi bekor qilinadi va paxta hosili uchun imtiyozli kredit berilmaydi.

Hukumatga bunday klasterlar uchun jozibador moliyaviy choralar joriy qilish topshirildi.

Yig‘ilishda ishlab chiqarish va eksportni oshirish masalalari ham atroflicha tahlil qilindi.

Yurtimizda tayyorlanayotgan ip-kalava va matoning narxi raqobatchilarga nisbatan o‘rtacha 10-15 foiz yuqori, chunki mahsulotlarimiz tarkibining 90 foizi paxta. Dunyoda esa sun‘iy tola va aralash mato ko‘p ishlatiladi.

Korxonalarimizni arzon xomashyo bilan ta‘minlash maqsadida 2028-yil 1-yanvargacha aralash mato va gazlamani bojxona bojidan ozod etish belgilandi.

Bir nechta bo‘yoq korxonalari birlashib, suv tozalash inshootini qurmoqchi bo‘lsa, xarajatining bir qismi Savdoni rivojlantirish kompaniyasidan qoplab beriladi.

Eksportchi korxonalarga tumanlarda filial ochish uchun Savdoni rivojlantirish kompaniyasidan besh yil muddatga 10 milliard so‘mgacha Markaziy bank asosiy stavkasida kredit ajratiladi. Xorijlik dizayner, texnolog, konstruktor va marketologlarning oylik maoshi qoplab beriladi. Faqat 200 ta ish o‘rni ochish va munosib ish haqi to‘lashi shart.

Dunyo bozorlariga chiqishda eng muhim masala — sifat va standart. Shu bois, Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga to‘qimachilik korxonalarining xalqaro sertifikat olishiga ko‘maklashib, ular sonini 300 taga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Yevropa va AQSH bozoriga tayyor kiyim-kechak eksportini kengaytirish muhimligi ta‘kidlandi. Xususan, Amerikada yiliga qariyb 100 milliard dollarlik to‘qimachilik bozori bor. Mahsulotni talabga moslashtirish orqaligina unda o‘rin egallash mumkin. Shu maqsadda Nyu-York va Sent-Luis shaharlarida savdo uylari ochish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Tashqi ishlar vazirligi va elchilarga yirik brendlar bilan hamkorlik qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, ularni Toshkentda bo‘ladigan yirik ko‘rgazmaga taklif qilish topshirildi.

Korxonalar faoliyatida sun‘iy intellektni qo‘llash orqali daromadni 20-30 foizga oshirish hamda yashirin iqtisodiyot omilini kamaytirish mumkinligi qayd etildi. Bu borada to‘qimachilik korxonalarida “ERP” tizimini joriy qilish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

Yig‘ilishda tashkiliy masala ham ko‘rib chiqildi. Jahonda savdo qoidalari tez

o‘zgarayotgan sharoitda soha boshqaruvida alohida yondashuvga zarurat tug‘ilayotgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Shu bois, Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi tashkil qilinadigan bo‘ldi. U to‘qimachilik, charm va ipaksanoat tarmoqlariga mas‘ul bo‘ladi.

Agentlik uchun alohida jamg‘arma tuzilib, davlat ko‘magi va korxonalarga arzon aylanma mablag‘ u orqali beriladi. Jamg‘armaga 200 million dollar ajratiladi. Tashkilot huzurida tajribali tadbirkorlardan iborat kengash ham tuziladi.

Yangi tuzilmaga mazkur kengash bilan birga tannarx, ishlab chiqarish va eksport bo‘yicha natijadorlikni oshirish, kooperatsiyani kuchaytirib, past quvvatda ishlayotgan korxonalarni sog‘lomlashtirish vazifasi qo‘yildi. Xalqaro maslahatchilarni jalb etib, to‘qimachilikni 2030-yilgacha rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, shuningdek, charm, ipak va gilamchilik sanoatini kengaytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Bosh vazirga belgilangan vazifalar ijrosi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish topshirildi.

Yig‘ilishda sohadagi namunalı tajribalar ko‘rib chiqildi, tarmoq rahbarlari va tadbirkorlarning fikrlari tinglandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga

MUSTAQILLIK VA MADANIYAT

(Ikkinchi maqola)

Milliy mustaqillikning 34 yilligi arafasida inson, jamiyat va davlat tarixiga oid ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-madaniy hodisalar, jarayonlar to‘g‘risida aniq, ravshan ma‘lumotlarga ega bo‘lish barchamizning tarixiy taraqqiyot bosqichlari yoki ortga ketishlar haqida xolis bilimga ega bo‘lishimiz kafolatidir. O‘zbekiston tarixining barcha bosqichida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar, o‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlardan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘z taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi.

Darhaqiqat, bugun yurtimizning yaqin va uzoq tarixiga bir nazar solish, shu asnoda ijtimoiy taraqqiyotimizning kelajakdagi strategik yo‘nalishlarini belgilab olish o‘ta muhim. Tarix zanjirlarini bir-biri bilan bog‘lab turadigan rishtalar juda ko‘p. Ammo ular orasida madaniyat kabi noyob, barcha zamon va makonda hammani o‘ziga jalb etib, jilolanib, odamlarda yuksak axloqiy ko‘nikmalar shakllanishi, ruhiy tetiklik, ijodiy ko‘tarinkilik kabi ko‘plab sifatlar shakllanishiga ko‘maklashadigan hodisa borki, uning ahamiyatini aslo kamsitish mumkin emas. Prezidentimiz bekorga bizni madaniyat bog‘lab turadi

va u insoniyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi deb ta‘kidlamagan.

Haqiqatan, insoniyat mavjudligini anglatib, ajdodlar va avlodlar zanjirini bog‘lab turadigan fenomen hodisa madaniyatdir. U real hodisa va har bir millat, elat, sivilizatsiyaning o‘ziga xosligi, aloqadorligi, ayni paytda ularning o‘zaro aloqadorligi, uyg‘unligini tarixiy jarayonlar silsilasida namoyon etadi. Shu ma‘noda, madaniyat va tarixni bir-biridan mutlaqo ayro holda tushunish va anglash mumkin emas. Madaniyat va tarixning umumiyligi va xususiyligi makon va zamonda aks etadi.

Madaniyat inson hayoti, turmush tarzining ajralmas bo‘lagi sifatida har

doim o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. U millat va mamlakatning qiyinchiliklari, hattoiki mustamlaka davrida ham odamlarni kurashga oltantiradi, istiqlolning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rmini belgilab beradi, jamiyat a‘zolarining qorong‘ilikdan yorug‘lik, zullikdan erkinlik sari yo‘lini belgilab beruvchi noyob hodisadir.

Shuningdek, madaniyat har qanday zulum, istibdod davrida ham odamlarning kelajakka, taraqqiyotga intilishlariga ma‘naviy ruh beradi, erk, ozodlik, istiqlol yo‘lidagi kurashiga mazmun bag‘ishlaydi. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining madaniyat sohasi xodimlarining jamiyat

hayotidagi o‘rni masalasiga doir quyidagi fikrlarini qayd etish lozim: “Tarixdan ma‘lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san‘at namoyandalari, ma‘naviyat va ma‘rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadic bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”.

Davomi 3-betda

Nuqtayi nazar

BARQAROR TURIZM SARI STRATEGIK QADAM

Turizm sohasining O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi har yili oshmoqda. 2024-yil oxirida turizmning YIMdagi hissasi 4,5 foizga yetdi.

Bu sohaning kelgusida yanada taraqqiy etishi mavjud ayrim muammolarni bartaraf qilish, jumladan, ekologik turizmni tabiiy muhitni asrab-avaylash, mahalliy jamoalarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va o‘quv-ta‘lim maqsadlarini qamrab oladigan faoliyat sifatida rivojlantirish bilan bog‘liq. Bu esa O‘zbekistonda ichki va tashqi turizmni rivojlantirishning davlat strategiyasini ishlab

chiqish, ko‘p hollarda rejalashtirilmagan, infratuzilmasiz, ekologik va madaniy talablarga javob bermaydigan holatlarni bartaraf etish bilan ham bog‘liq. Ushbu yo‘nalishdagi ayrim tartibsizliklar nafaqat tabiatga zarar yetkazadi, ayni paytda mamlakat imijiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Davomi 4-betda

QAQROQ YERLARGA HAYOT QAYTDI

SURXONDARYODA SUVNI TEJASH ISHLARI IZCHIL BAJARILMOQDA

Xalqimiz azaldan har qarich yer, har tomchi suvdan unumli foydalangan. Yer bilan tillashib, suv ila sirlashgan. Ulardan unumli foydalanishning hadisini olgan va dehqonchilik, bog‘dorchilik qilgan. Zamonaviy dunyoda bunday unumdorlik bozordagi narx-navo barqarorligida muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, global iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq suv tanqisligi ushbu ne‘matning har tomchisidan maqsadli foydalanishni taqozo etmoqda. Shu bois, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligida tabiiy resurslar, ayniqsa, suvdan samarali foydalanishga alohida e‘tibor qaratilyapti.

Davomi 2-betda

SANOATLASHAYOTGAN QISHLOQLAR

2

YANGI TARTIB AMALDA

4

CHIQUINDI XIZMATIDAN QARZDORLARNING HAMMASIGA HAM ELEKTR TO'LOVIDA CHEKLOV O'RNATILMAYDI

Shu kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda “Endi chiqindidan qarzi bor xonadonlar elektr tarmoqlaridan uziladi” mazmunidagi xabarlar tarqalib, keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Bu joriy yilning 1-avgustidan boshlab mamlakatimizda kuchga kirgan yangi tartib — chiqindi xizmatlaridan qarzdorligi bor aholining elektr energiyasi uchun to'lovlariga vaqtincha cheklov qo'yilishi bilan bog'liq.

Ya'ni chiqindi uchun to'lovlar bevosita elektr energiyasi to'lovlar bilan bog'lanyapti. Bunday tajriba yurtimiz amaliyotida yangilik bo'lgani bois, aholi orasida tushunmovchilik va norozilikni keltirib chiqarmoqda. Gap faqat to'lovlardan qochish yoki chiqindi xizmatlari muhim hisoblanmayotganida emas, shunchaki yangi tartib qanday ishlashi, kimlarga amal qilishi, qanday afzalliklarga ega ekani borasida ko'pchiligimizda hali tasavvur mavjud emas. Shu bois, aholi orasida buni jazolovchi chora sifatida baholab, maqsad faqat chiqindi to'lovlaridan qarzdorliklarni bartaraf etishga qaratilgan deb hisoblayotganlar ham bor.

— Yangi tartib aholi uchun jazolovchi chora emas, aksincha, fuqarolarga ko'rsatiladigan sanitar tozalash xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan, — deydi Ekologiya vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi bosh mutaxassisi Umidjon Kamolov. — Masalan, chiqindi tashish xizmati yo'nalishida shu vaqtga qadar eskicha tizimda ishlangan. Maxsus mashinalar mahallalardagi chiqindilarni olib chiqib ketsa ham yoki xizmat ko'rsatilmasa ham aholi jon boshiga to'lov hisoblanavergan. Shuning uchun ko'p odamlar ko'rsatilmagan xizmatga to'lov qilishdan norozi bo'lardi. Endi bu tartib o'zgarib, to'lov faqat xizmat ko'rsatish soniga qarab amalga oshiriladi. Buning uchun chiqindi tashish texnika vositalariga GPS kuzatuv tizimi o'rnatilib, “Toza makon” dasturi orqali doimiy nazorat qilib boriladi. Aholining to'lov tartibiga o'zgartirish kiritilib, elektr ta'minoti bilan integratsiya qilinayotgani ham yangilangan mexanizmining bir qismi. Maqsad mazkur yo'nalishda to'lovni ham, xizmat ko'rsatish sifati va sonini ham oshirishga qaratilgan.

Kimlarga amal qiladi?

Mutaxassising tushuntirishicha, tartibga ko'ra, aholining chiqindidan qarzdorligi mavjud bo'lganda elektr tarmog'idan uzilmaydi, balki tok uchun to'lovlarga cheklov o'rnatiladi. Biroq cheklov

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab chiqindi xizmatlari uchun aholining 600 milliard so'mdan ortiq qarzdorligi mavjud. Shu kabi muammolar ham to'lov tizimida yangi va zamonaviy tartibni joriy etish zarurati yuzaga keltirgandi. Mazkur tartibning yo'lga qo'yilishi orqali aholiga ko'rsatilayotgan chiqindi xizmatlari sifati, qamrov darajasini oshirish, chekka hududlargacha sanitar tozalash xizmati bilan qamrab olish maqsadlari yotibdi.



o'rnatishdan oldin qarzdorlar tegishli tartibda ogohlantiriladi. Bunda har oyning 3-sanasisiga qadar Chiqindilarni boshqarish agentligining “Toza makon” billing elektron tizimida qarzdor abonentlar to'g'risida shakllantirilgan ma'lumotlar “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning billing tizimiga uzatiladi. Ana shu ro'yxat asosida abonentlarga har oyning 5-sanasisigacha “Hududiy elektr

ta'minlangan holda to'lovlarni hisoblash yo'lga qo'yilgan hududlardagina amal qiladi. — Birinchi bosqichda yurtimizdagi 1500 dan ortiq mahalla GPS kuzatuv tizimi bilan integratsiya qilinib, yo'nalish jadvallari belgilandi, — deydi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi bosh mutaxassisi Jamshid Jalilov. — Yangi

tartib ana shu mahallalardagi 230 mingdan ortiq abonentga amal qiladi. Elektron kuzatuv tizimi o'rnatilgan chiqindi tashish mashinalari mahallaga necha marotaba kirgani, xizmat ko'rsatish soni va boshqa barcha ma'lumotlar onlayn kuzatib boriladi. Shu asosda to'lov jadvali shakllantirilib, shaffof hisob-kitob qilinadi va abonentlarning to'lov summasi chiqariladi.

Hozirgi kunda yurtimizda maishiy chiqindilar bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha 64 ta davlat-xususiy sheriklik bitimiga asosan 50 ta sanitar tozalash korxonasi faoliyatini yuritib kermoqda. Ularga tegishli texnikaning onlayn kuzatuv tizimiga ulanganlik darajasi 87 foizni tashkil qiladi. GPS qurilmasi mashinaning harakati, tezligi, vaqti, to'xtalishlar soni kabi ma'lumotlarni onlayn kuzatib turish imkonini beradi. Zamonaviy mexanizmining ushbu afzalliklari sanitar tozalash xizmati sifatini, mashinalar qatnovi sonini oshirishga xizmat qilmoqda.

Vakolatmi yoki mas'uliyat?!

Demak, yurtimizda chiqindi tashish xizmatlarini zamonaviylashtirib, sifatini oshirish barobarida to'lov tizimlari ham yangicha tartibga o'tkazilmoqda. Bu yo'nalishda to'lov muntazamligini ta'minlash, qarzdorlikni bartaraf etish ham maqsad qilingan. Boisi, yurtimiz aholisining aksariyati chiqindi xizmatlari uchun to'lov masalasiga bepisand qaraydi.



QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING!

Bu xizmat kommunal to'lovlar orasida eng arzoni bo'lishiga qaramay, ko'pincha malol kelishi ham sir emas. Go'yo mahalla hududini chiqindilardan tozalashning bizga daxli yo'qdek tuyuladi. Boshqa tomondan, o'zimiz istiqomat qiladigan joyning doim ozoda, saranjom-sarishta turishini istab, buni mas'ullardan talab qilishni yaxshi udalaymiz.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab chiqindi xizmatlari uchun aholining 600 milliard so'mdan ortiq qarzdorligi mavjud. Shu kabi muammolar ham to'lov tizimida yangi va zamonaviy tartibni joriy etish zarurati yuzaga keltirgandi. Mazkur tartibning yo'lga qo'yilishi orqali aholiga ko'rsatilayotgan chiqindi xizmatlari sifati, qamrov darajasini oshirish, chekka hududlargacha sanitar tozalash xizmati bilan qamrab olish maqsadlari yotibdi.

Bu tushunarli. Ammo chiqindi to'lovlari nega aynan elektr energiyasi bilan bog'lanayotgani ham ko'pchilikni qiziqirtirmoqda.

— Yangi tartibni joriy etishdan oldin xorij davlatlari tajribasi o'rganildi, — deydi Chiqindilarni boshqarish agentligi bosh mutaxassisi Umidjon Kamolov. — Ko'p mamlakatlarda chiqindi xizmatlarida aniq o'lchov birligi yo'qligi sabab to'lovlar fuqaro soniga nisbatan hisoblanadi. Biroq ba'zi davlatlarda boshqacharoq tizim amal qiladi. Ya'ni chiqindi to'lovlari yer solig'iga, ayrimlarida esa suv yoki tabiiy gaz to'lovlariga bog'langan. O'rganishlardan so'ng O'zbekiston uchun eng maqbul yechim sifatida elektr energiyasiga integratsiya qilish tartibi tanlandi. Boisi, yurtimizning 96

foizdan ortiq hududi elektr energiyasi bilan qamrab olingan bo'lib, bu boshqa kommunal xizmatlar orasida eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Shunday qilib, endi chiqindidan qarzi bor abonentlarning elektr energiyasi uchun to'lovlariga cheklov qo'yish tartibi amal qiladi. Zamonaviy tizimning ishlashi raqamli texnologiyalarga asoslangani ham xizmat ko'rsatish sifati va natijadorligini oshirishga qaratilgan. GPS qurilmalari sanitar tozalash korxonalari tomonidan o'rnatilayapti.

Bunday korxonalarning xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hozir, ayniqsa, dolzarbdir. Chunki ekologik xavfsizlik haqida gap ketganida bevosita hududlarni chiqindilardan tozalash muammosi o'rtaga chiqadi. Bu borada sansolarliklar bo'lavermasligi uchun ham sanitar korxonalar faoliyatini tartibga solish, ish sifatini oshirish, onlayn nazorat tizimini yo'lga qo'yish zarurati yuzaga keldi.

Shu maqsadda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan har yili sanitar korxonalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib borilayapti. Birgina shu yilning dastlabki choragida yurtimiz bo'ylab shunday korxonalarga 55 dan ortiq zamonaviy texnika imtiyozli lizing shartlari asosida tarqatildi.

Ayrim hududlarda esa chiqindi tashuvchi minitexnika topshirilmoqda. Masalan, Samarqand shahrida tajriba sifatida kichik hajmdagi 30 ta elektr motoroller xizmati yo'lga qo'yildi. Endi mahallalarga 12, 18 kubometrligi chiqindi tashuvchi mashinalar emas, 2-3 tonna yuk tashishga mo'ljallangan elektr motorollerlar kiritilayapti. Ular har kuni belgilangan mahalladan chiqindilarni yig'ib olib, qayta yuklash punktiga to'kishi, u yerdan poligoniga olib ketish tajribasi yo'lga qo'yildi. Mazkur Samarqand tajribasi davlatimiz rahbariga taqdimot qilingan bo'lib, ayni vaqtda boshqa hududlarda ham tatbiq etish harakati boshlangan. Dastlab viloyatlar markazida yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

Demak, joriy yil 1-avgustdan kuchga kirgan yangi tartib sanitar tozalash korxonalari zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi. Ular nafaqat ish sifati, balki chiqindi to'lovlarini hisoblashda aniqlik va haqqoniylik uchun javobgar hisoblanadi. Joriy yildan boshlab esa bunday korxonalar faoliyatini baholash orqali qizil, sariq va yashil toifalarga ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Mutasaddilarning aytishicha, yaqin kunlarda toifalarga ajratish bo'yicha yarim yillik natijalar e'lon qilinadi.

Bu shunchaki ro'yxat bo'lmaydi. Yurtimizda shakllangan amaliyotga ko'ra, toifalarning har biri o'z vazifasiga ega. Ya'ni yashil toifadagilarga ayrim imtiyozlar berilsa, qizil toifaga tushgan korxonalardan biriktirilgan hududi olib qo'yilishi mumkin. Mazkur hudud qaytadan tengdarga chiqariladi va boshqa sanitar tozalash korxonasida uni yutib olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Aholiga qulayligi shuki, endi odamlar ko'rsatilmagan chiqindi xizmatlari uchun to'lov qilmaydi. Yangi tartib yo'lga qo'yilgan mahallalardagi chiqindi tashish mashinalarining xizmat ko'rsatish soni, tartibi va shu yo'nalishdagi boshqa barcha ma'lumotlarni aholi “Toza makon” yagona elektron billing tizimi orqali kuzatish imkoniga ega. Onlayn platformadan nafaqat belgilangan hududlar aholisi, balki barcha abonentlar foydalanishi mumkin. Zamonaviy billing tizimi bir qancha davlat idoralari bilan integratsiya qilingan bo'lib, fuqarolar ONE ID tizimi va shaxsiy hisob raqami orqali maxsus ilovaga kirib, billing tizimidan o'ziga tegishli ma'lumotlarni ko'rishi mumkin.

Aytgancha, hozirgi kunda 1500 dan ortiq mahalla bo'yicha joriy qilingan yangi tartib — chiqindidan qarzdorligi bor abonentlar uchun elektr energiyasiga to'lovlarni cheklash amaliyoti yil oxirigacha bosqichma-bosqich yurtimizning barcha hududlarini qamrab olishi rejalashtirilgan.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



BARQAROR TURIZM SARI STRATEGIK QADAM



Komiljon TOJIBOYEV,
FA Botanika instituti direktori,
biologiya fanlari doktori, akademik

Boshlanishi 1-betda

Shu nuqtayi nazardan, “Sea Breeze Uzbekistan” loyihasi o'ta dolzarb va o'z vaqtidagi tashabbusdir. Loyiha nafaqat hududda zamonaviy infratuzilma yaratilishini, balki tabiiy sog'lom muhitni muhofaza qilish, ekologik turizmni rivojlantirish va jamoatchilikni jalb qilishni ko'zda tutadi. Loyiha O'zbekistondagi eng yirik kurort komplekslaridan biri bo'lishi kutilayapti, unga iqtisodiy jihatdan katta umidlar bog'lanmoqda.

Ayni paytda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq jarayon atrof-muhitga salbiy ta'sir etmasligini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Loyiha doirasidagi bunyodkorlik ishlari davomida barcha mavjud ekologik standartlarga rioya qilish orqali sohaga qator ijobiy yangiliklar kirib kelishi mumkin. Suvni tejash, energiyadan samarali foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarda ekologik barqarorlikni ta'minlash, kommunikatsiyalar va yo'llar qurilishi mahalliy aholi uchun ham qulaylik yaratilishi va ayni paytda Chorvoq suv ombori atrofidagi sanitariya holatini yaxshilash, atrof-muhitga zarar yetkazishning oldini olish, mahalliy biologik xilma-xillikdan faqat foydalanish emas, aksincha, uni ekish, ko'paytirish, tabiiy landschaftlarni yaratish va namoyish qilish orqali mintaqada ekologik madaniyatni oshirish kabilar shular jumlasidandir.



“Sea Breeze Uzbekistan” loyihasi rejalashtirilayotgan hudud G'arbiy Tyanshan shahariga beshta ulkan — Qorjontog', Ugom, Piskom, Ko'ksuv va Chotqol tog' tizimlari bir-biri bilan tutashadigan, mintaqadagi uchta yirik daryo qo'shiladigan Chorvoq suv ombori atrofidir. Tabiiyki, bu joy boy mahalliy flora ega, aynan shu mintaq uchun xos bo'lgan endemik o'simliklar xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadigan hududdir. Bu kabi yirik loyiha mahalliy o'simliklar xilma-xilligi, shu jumladan, xalqaro va O'zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan tur populyatsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydimi degan haqli savol tug'iladi. Shu nuqtayi nazardan, “Sea Breeze Uzbekistan” loyihasi hozirgi kunda boshqarilmaydigan ekoturizm, ya'ni shunchaki tog'li hududda dam olish orqali atrof-muhitga, ayniqsa, kamyoq o'simlik turlarining tabiiy populyatsiyalariga bilib-bilmay yetkazilayotgan salbiy ta'sirning oldini olish imkonini berishi mumkin.

Chorvoq suv ombori atrofida mavjud daraxtlarni saqlab qolishda vakolatli davlat tashkilotlarining nazorati alohida ahamiyatga molik. Mavjud daraxt turlarini qimmatbaho, kam qimmatli va nobud bo'lgan toifalarga ajratgan holda umummavsumiy dam olish majmuasini barpo etish loyihasiga asosan tashkil etilayotgan yashil zonalar yoki o'rmon fondining boshqa yerlariga ko'chirish, lozim o'rinnlarda har bir

daraxt tupi uchun hududning tuproq-iqlim sharoitlariga mos keladigan 5-7 yillik daraxt ko'chatlarini kompensatsiya tariqasida ekish Vazirlar Mahkamasining loyihaga doir tegishli qarori bilan belgilab berilgan.

Shu o'rinda ushbu loyiha va Vazirlar Mahkamas qarorida ko'zda tutilmagan, lekin qurilish ishlari amalga oshiriladigan va unga yondosh hududlardagi kamyoq va muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolish, ekologik ta'lim-tarbiya rolini yanada oshirish, mahalliy aholi va xorijlik sayyohlarda O'zbekiston biologik xilma-xilligi borasidagi bilimlarni ilmiy asosda ommalashtirish, targ'ib etishga xizmat qiladigan ayrim takliflarni bildirish o'rini deb hisoblaymiz.

Jumladan, “Sea Breeze Uzbekistan” loyihasi uchun ajratilgan hududda G'arbiy Tyanshan florasidagi endem, kamyoq va muhofazaga muhtoj turlarning tirik kolleksiyasini mutaxassislar ishtirokida yaratish va undan ekologik bilimlarni shakllantirishdagi o'ziga xos platforma sifatida foydalanish bu borada bildirilishi mumkin bo'lgan takliflar orasida asosiy o'rin tutadi. Tabiiyki, bu kolleksiyaning asosini tabiiy flora muhim o'rin tutadigan G'arbiy Tyanshan florasidagi lolalar, piyoz, shirach, gulsafar turlari, mahalliy flordan O'zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan va ayni paytda tabiiy populyatsiyalari cheklangan o'simlik turlari tashkil etadi.

Bu kabi ilmiy faoliyat turi mavjud yondashuvlarga ko'ra, maxsus pitomniklarda, undan ham ko'proq botanika bog'larida amalga oshirilmoqda. Umummavsumiy dam olish majmuasi barpo etilganidan so'ng tashrif buyurishi kutilayotgan mahalliy va xorijiy sayyohlar ko'lamidan kelib chiqqan holda bu kabi noyob o'simliklarning tabiiy sharoitlariga o'ta yaqin hududlarda tirik kolleksiyalar yaratilishi va namoyish qilinishi katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu toifaga kiruvchi o'simliklarni asrash va ularni ilmiy asosda namoyish etish xavf ostidagi o'simlik turlarini xos tabiiy muhitda muhofaza qilishning eng samarali usuli hisoblanadi. Ilmiy jihatdan aytganda, mazkur taklif O'zbekistonda muqobiliga ega bo'lmagan va ayni paytda kamyoq turlarni tabiiy muhitda (in-situ) muhofaza qilish bilan botanika bog'larini, maxsus pitomniklar (ex-situ) sharoitlarida yetishtirishning uyg'unlashgan ko'rinishi bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida,

Islahot odimlari

O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN TARAQQQIYOTI

YAQIN ISTIQBOLDA QANDAY SALOHİYAT KASB ETADI?

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fanga bo‘lgan e’tibor butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi. Buning samarasi shunchaki oddiy raqamlarda emas, tizimli va maqsadli islohotlarda, aniq strategiya va amaliy qadamlar orqali amalga oshirilayotgan keng qamrovli jarayonda yaqqol ko‘zga tashlanyapti. Ilmiy muassasalar zamonaviy laboratoriya va uskunalar bilan jihozlanmoqda, fundamental hamda amaliy tadqiqotlar uchun ajratilayotgan grantlar soni va sifati ortib bormoqda.

Yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash masalasi alohida e’tibor markazida — ular uchun maxsus stipendiya, ilmiy tanlovlar, xorijiy stajirovkalar yo‘lga qo‘yilgan. Eng muhim jihatlardan yana biri — ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish uchun texnoparklar va innovatsion inkubator markazlari tashkil etilayotganidir. Bu esa ilmiy hayotga, bilimni iqtisodiyotga uyg‘unlashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qisqacha aytganda, ilm-fanni strategik resurs sifatida qabul qilish, uni milliy taraqqiyotning poydevori deb bilish bugungi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, professor Sirojiddin MIRZAYEV bilan suhbatimiz shu mavzuda bo‘ldi.

— Bugungi o‘zgarishlar shunchalik keng qamrovli, ularni oddiy islohot deb atash kamlik qiladi. Bu — yangi uyg‘onish, yangi rivojlanish davri. Mazkur jarayonda jamiyatning faqat iqtisodiy yoki siyosiy emas, ruhiy va aqliy kamoloti ham ustuvor ahamiyat kasb etyapti. Evrilishlar silsilasida ziyoli insonning, ayniqsa, olimlarning o‘rni qanday bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?

— Olimlar hamma vaqt jamiyatning fikr yuritishi, dunyoqarashi va kelajak sari intilishida asosiy kuch bo‘lib xizmat qilib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Ayni hozirgi buriilish davrida ham ilm ahlilari faqat kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi, ilmiy yo‘lboshchi va ma’naviy rahnamoga aylanishi kerak. Biz uchun bu faqat vazifa emas, vatan oldidagi mas’uliyat, avlodlar oldidagi qarzdor. Shu ma’nodan, yangi davr, yangilanish jarayonida ilm-fan va olimlarning o‘rni beqiyos. Chunki aynan olimlar turli sohalar taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarga yechim topishi, buning eng samarali va amaliy yo‘llarini ilmiy asosda ishlab chiqishi lozim. Bu, shubhasiz, ulkan mas’uliyatni talab etadi.

Aslida, ilm-fanning chegarasi yo‘q. Olib borilayotgan har bir ilmiy tadqiqot natijalari kelajakda kutilmagan sohalarida muhim muammolarni hal etishga xizmat qilishi mumkin. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan fundamental ilmiy tadqiqotlarning haqiqiy samarasi, ehtimol, 50-60 yildan so‘ng ko‘rinadi. Bu tabiiy hol. Masalan, yarim o‘tkazgichlar fizikasidagi kashfiyotlar o‘tgan asrning o‘rtalarida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ular asosida yaratilgan elektron qurilmalar, kompyuterlar va zamonaviy gadjetlar hayotimizga ancha keyin kirib keldi. Fundamental fanga asoslangan kashfiyotlar amaliyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri joriy etilmaydi. Bu jarayon uzoq vaqt va ko‘p bosqichli tadqiqotlarni talab etadi. Ilmiy g‘oyalarni dastlab nazariy jihatdan asoslanadi, so‘ng turli tajribalar orqali sinab ko‘riladi, keyin esa texnologiyaga aylanib, ishlab chiqarishga tatbiq etiladi. Shundan so‘ngina ularning jamiyat hayotidagi ta’siri sezila boshlaydi. Shu nuqtayi nazaridan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti olimlari tomonidan yaratilgan nano-kompozit zarrachalar dunyodagi innovatsion yutuqlardan biri sifatida alohida e’tirofga loyiq. Bu zarrachalar haroratni mo‘tadillashtrish vazifasini bajaradigan maxsus issiqxona plyonkalar tarkibiga qo‘shiladi va bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani amalga oshiradi. Xususan, plyonka tashqi havo harorati -7 °C bo‘lgan sharoitda ham ichki haroratni +5-7 °C darajada ushlab turadi. Issiq kunlarda esa bu ko‘rsatkichni 5-8 °Cga pasaytiradi. Natijada energiyatejamkorlik 60 foizgacha oshadi, fotosintez jarayoni faollashadi, o‘simliklarning o‘sish sur’ati 1,5-2 barobarga ortib, hosildorlik 50 foizgacha ko‘payadi. Shu bilan birga, suv sarfi 30 foizdan 90 foizgacha kamayadi, plyonkaning mustahkamligi esa odatiy turlarga nisbatan 3 barobar yuqori. Bu texnologiya amaliyotda sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Shuningdek, Shanxay qishloq xo‘jaligi akademiyasi bilan Xitoyning turli tuproq-iqlim sharoitida keng ko‘lamli sinovlar olib borildi. Ular bilan institut yaqinida plyonka ishlab chiqaruvchi kichik zavodni ishga tushirmoqchimiz. Ushbu ilmiy ishlanmani tijoratlashtirish bo‘yicha 2025-yilda 1 tonna, 2026-yilda 10 tonna nano-kompozit



zarrachalarni ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Kelajakda yillik hajm 2000 tonnagacha yetkaziladi. Bu ilming faqat nazariy emas, balki amaliy va iqtisodiy kuchga aylanayotganining yaqqol isbotidir. Bugungi ilmiy izlanishlarimiz nafaqat fan taraqqiyoti, balki qishloq xo‘jaligi, energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi hayotiy sohalarida ham o‘zining aniq natijasini bermoqda.

Shu ma’nodan, ilm-fanga kiritilayotgan har qanday sarmoya — ertangi texnologik taraqqiyot, milliy xavfsizlik va iqtisodiy mustaqillikning mustahkam kafolatidir. Ilmiy izlanishlar faqat bugun emas, balki kelajakda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan, hozircha tasavvurga sig‘maydigan muammolar uchun ham tayyor yechimlar poydevoridir. Chunki ilm-fan shunday. U ko‘p hollarda oldindan aniq natijani va‘da qilmaydi, ammo yangi imkoniyatlar ehsini ochadi. Ilm ertangi insoniyat hayotidagi sifat o‘zgarishlarining ham asosidir. Misol uchun, bir necha o‘n yillar muqaddam ilk bor namoyish etilgan 3D printerlar o‘yinchoqdek ko‘rinishga ega edi. Ushbu qurilmalar avvaliga faqat qog‘ozda shakllar va yozuvlar chiza olish bilan cheklangan. Ammo vaqt o‘tishi bilan bu texnologiya rivojlanib, hozirgi kunda arxitektura va qurilish sohalarida bevosita bino va inshootlar barpo etish imkonini bermoqda. Shuningdek, tibbiyotda inson organlarini qayta yaratish imkonini beruvchi bioprinterlar ham yaratilyapti. Bu esa yaqin kelajakda transplantatsiya sohasida inqilob yasashi mumkin. E’tiborli jihati shundaki, ushbu texnologiyalar asosidagi fundamental ilmiy g‘oyalarni va kashfiyotlar o‘tgan asrdayoq yaratilgan, ammo ularni amaliyotga joriy etish uchun katta vaqt, izlanish, tajriba va texnik taraqqiyot talab qilingan. Hozir biz guvohi bo‘layotgan qator ilg‘or texnologiyalar — o‘tmishdagi “ko‘rinmas” ilmiy tadqiqotlar samarasidir. Demak, bugun fan olamida qilinganotgan har bir izlanish ertangi kunning inqilobiy o‘zgarishiga aylanishi mumkin.

— O‘rta maktab darsliklarida yadro fizikasi haqida ilk ma’lumotlar berilgan. Ko‘pchilik bu haqda dastlabki tasavvurga ega bo‘lsa-da, uning orqasida qanday imkoniyatlar yotgani, qanday yangi natijalar olinayotgani haqida bilmaydi. Bugun shu yo‘nalishda olib borilayotgan izlanishlar ilm-fan rivojiga qanday hissa qo‘shyapti?

— Institut Markaziy Osiyo davlatlarida yagona bo‘lgan tadqiqot reaktori hisoblanadi. Institutda olinayotgan yangi-yangi izotoplar yadro tibbiyotida katta ahamiyatga ega. Biz ularni turli kasalliklarni oldindan aniqlash imkoniyatini beruvchi “marker”lar deymiz.

Yadro fizikasi kecha insoniyat uchun halokat keltiruvchi qurollar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, bugun u inson hayotini saqlab qolish, og‘ir xastaliklarni barvaqt aniqlash va davolashda o‘rni bosib bo‘lmaydigan shifobaxsh texnologiyaga aylandi. So‘nggi o‘n yilliklar inson hayotining sifati va davomiyligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sohalar, ayniqsa, tibbiyotda yadro fizikasi va boshqa ilmiy intensiv texnologiyalar jadal tatbiq etilishi va bu orqali mutlaqo yangi yo‘nalishlar shakllanishini ko‘rsatmoqda. Shuning natijasida yadro tibbiyoti fanning eng istiqbolli va inson hayoti uchun ahamiyatli sohalaridan biri sifatida tan olinmoqda.

Yadro tibbiyoti usullarining o‘ziga xosligi shundaki, ular inson a‘zolaridagi hayotiy faoliyatdagi funksional o‘zgarishlarni kasallikning dastlabki, hali simptomlar namoyon bo‘lmagan bosqichida aniqlash imkonini beradi. Bu esa erta tashxis va samarali davolash imkoniyatlarini oshiradi.

O‘zbekistonda yadro tibbiyoti va izotop mahsulotlar ishlab chiqarish sohasi uzoq yillik ilmiy maktab va amaliyotga ega. Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti hali 1970-yillardanoq ushbu yo‘nalishda ilk qadamlarni tashlagan. 1976-yilda esa “Radio preparat” korxonasi negizida radiofarm preparatlar ishlab chiqarish yo‘liga qo‘yilgan. Bu dunyoda “yadro tibbiyoti” tushunchasi hali keng tarqalgan, birmuncha shubha bilan qaralgan davr edi. Shu jihatdan, O‘zbekistonni bu sohada ilg‘or davlatlardan biri deb aytish mumkin.

Izotop mahsulotlar ishlab chiqarishda mamlakatimiz xalqaro bozorda yetakchi o‘rinlardan birini egallab turibdi. Masalan, onkologik kasalliklarni davolashda qo‘llaniladigan yod-125 izotopining jahon miqyosidagi ishlab chiqarilayotgan miqdorining 80 foizga yaqini, fosfor-32 radioizotopining 50 foizdan ortig‘i O‘zbekistondagi BBR-SM reaktorida ishlab chiqariladi. Shu bilan birga, texnitsiy-99m radio nuklid dunyo bo‘yicha 85 foizdan ortiq tashxis muolajalarida foydalaniladigan universal radioizotop generatori ilk bor 1978-yilda yadro fizikasi institutida olingan.

Ayni paytda Fanlar akademiyasi tizimida ishlab chiqarilayotgan izotop mahsulotlarining 90 foizdan ortig‘i eksport qilinadi va bugungi kunda AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Kanada, Birlashgan Arab Amirli va boshqa davlatlarga yetkazib berilyapti. Bu eksportdan yiliga o‘rtacha 4 million AQSH dollari miqdorida daromad kelmoqda. Yadro fizikasi instituti shu orqali dunyodagi radiofarmasevtik preparatlar ishlab chiqaruvchi 10 ta yirik markaz qatoriga kiradi.

So‘nggi yillarda tegishli izotop asosida tayyorlangan dori vositalari orqali suyak metastazlari va og‘riqli o‘smalarni davolash amaliyoti keng qo‘llanmoqda. Shunday preparat Fransiya va Germaniyada 2500-2700 yevro atrofida sotilayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston klinikalariga 59 yevro hisobida mahalliy ishlab chiqarilgan holda taqdim etilmoqda. Hozirgi kunda prostata bezi saratonini davolashda keng qo‘llanib kelinayotgan va dunyoda katta talabga ega bo‘lgan lyutetsiy-177 PSMA-617 preparati ham eng arzon narxlarda yetkazib berilmoqda. Bu yurtimizdagi bemorlar uchun faqat tibbiy emas, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Yangi izotoplarni olish borasida izlanishlar bir nuqtada to‘xtab qolgani yo‘q. Hozir institutga izotoplarining turi va sifatini yanada kengaytirish maqsadida 10 million AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb qilinmoqda. Bu orqali izotoplarining turini kengaytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar taklif etish imkoniyati yaratiladi.

— Taraqqiyotga xizmat qilayotgan qanday muhim ilmiy va amaliy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilmoqda?

— So‘nggi yillarda mamlakatimizda seysmik xavfsizlikni ta’minlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilayotgani barchaga ma’lum. Prezidentimiz tashabbusi bilan sohadaagi ishlar izchil va tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmoqda. Eng muhim, seysmik xavfsizlik masalasi ilk bor davlat siyosat darajasiga ko‘tarildi. Bunday jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot



muassasalari muhim ilmiy va amaliy vazifalarni bajarmoqda. Jumladan, G‘.O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti tomonidan zilzila xavfini aniqlash, seysmik rayonlashtirish va prognozlash bo‘yicha amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Institut olimlari yer qatlaminin tebranish tezligi va amplituda-sezgirlik parametrlarini aniqlash asosida yangi avlod seysmik xavf xaritalarini ishlab chiqishdi. Jumladan, yirik shaharlar va tumanlar uchun 30 dan ortiq mikrohududlashtirish xaritalari tayyorlandi. Ushbu xaritalar hududning geologik tuzilishi, seysmik tebranish ehtimoli va ehtimoliy talafotlar darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, shaharsozlik, qurilish va loyihalash jarayonlarida muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston seysmik faol hududda joylashgan davlat sifatida zilzila xavfini kamaytirish, aholi va infratuzilmaning xavfsizligini ta’minlash borasida izchil va keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu islohotlar doirasida zilziladan oldin, zilzila vaqtida va undan keyin amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar kompleks yondashuv asosida rejalashtirilyapti. Asosiy maqsad zilzila oqibatidagi talafotlarni minimal darajagacha kamaytirish, inson hayoti va mulkini muhofaza qilish, shuningdek, infratuzilmani tez va samarali tiklash imkoniyatini yaratishdan iborat.

Hozirgi kunda Toshkent shahrining seysmik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha innovatsion yo‘nalishda muhim loyiha amalga oshirilmoqda. Bu shahar miqyosida zilzila oqibatlarini oldindan baholash va xavf darajasini aniqlash imkonini beradigan raqamli model hisoblanadi. Loyiha doirasida poytaxtdagi barcha bino-inshootlar, ularning konstruktiv xususiyatlari va joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar raqamli modelga joylashtirilmoqda. Keyin esa ehtimoliy zilzila ssenariylari asosida har bir hududdagi imoratlarining zarar ko‘rish ehtimoli, talafot miqdori va ta’sir doirasi aniqlanadi. Natijada nafaqat zarar miqdorini oldindan bashorat qilish, balki favqulodda vaziyatlarda tayyorlarlik ko‘rish, evakuatsiya rejalarni aniq belgilash va favqulodda vaziyatda tibbiy xizmatni tashkil etish kabi muhim vazifalarni samarali hal etish imkonini beradi.

Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti jamoasi esa yangi qurilayotgan imoratlar zilzilaga qanchalik bardoshlilikini tadqiq etyapti. Har bir loyiha chuqur o‘rganilmoqda. Institut



olimlarning xulosasisiz to‘rtinchi toifaga kiruvchi yangi bino va inshootlar loyihalari tasdiqlanmayapti.

2024-yilda Seysmologiya instituti tomonidan Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Andijon viloyatlari bo‘yicha jami 59 ta tuman va shahar turar joy binolarining seysmik xavfi atroflicha baholandi. Har bir hudud uchun kuchli zilzilada yuzaga keladigan ehtimoliy talafotlar xaritalari

olimlarning xulosasisiz to‘rtinchi toifaga kiruvchi yangi bino va inshootlar loyihalari tasdiqlanmayapti.

2024-yilda Seysmologiya instituti tomonidan Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Andijon viloyatlari bo‘yicha jami 59 ta tuman va shahar turar joy binolarining seysmik xavfi atroflicha baholandi. Har bir hudud uchun kuchli zilzilada yuzaga keladigan ehtimoliy talafotlar xaritalari



ishlab chiqildi. Ushbu ma’lumotlar mahalliy hokimiyatlar, loyihalash tashkilotlari va favqulodda vaziyatlar xizmati uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda.

Ayni paytda mamlakatning barcha hududlari kesimida seysmik xavf darajasi ilmiy asosda baholandi, bu esa seysmik xavfini boshqarish va rejalashtirish sohasida muhim strategik qadam hisoblanadi. Seysmik xavfini to‘liq va xolis baholashda yer qatridagi geodinamik jarayonlar Seysmologiya instituti tomonidan o‘rganilayotgan bo‘lsa, yer ustidagi binolar va inshootlarning konstruktiv tahlili Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ushbu ikki ilmiy muassasa hamkorligida hisoblash modellari, normativ hujjatlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu tajriba shaharlar va aholi zich joylashgan hududlardagi obyektlarning seysmik bardoshlilikini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda seysmik xavfsizlik sohasida ilm-fanda erishilgan yutuqlar xalqaro miqyosda ham tan olinmoqda. Jumladan, Osiyo seysmologik komissiyasining 16-Bosh assambleyasini 2026-yilda Toshkent shahrida o‘tkazish belgilandi.

Bugungi kunda seysmik xavfsizlikni ta’minlash faqat tabiiy ofatlarga qarshi kurash emas, balki davlat siyosati, ilmiy yondashuv, muhandislik yechimlari va jamoatchilik ongining uyg‘unligida hal etiladigan milliy xavfsizlik masalasidir. O‘zbekiston olimlari tomonidan ishlab chiqilayotgan innovatsion yechimlar va amaliy natijalar nafaqat mavjud muammolarni hal etish, balki kelajakdagi xavflarning oldini olishga ham xizmat qilmoqda.

— Bugungi dunyo yana bir burilish ostonasida turibdi. XXI asrda global inqirozlar, sun’iy intellekt, biotexnologiya

va metaolamlar kabi fenomenlar inson hayotini o‘zgartirmoqda. Moddiy taraqqiyot shiddati ma’naviy kamolotni orqada qoldirayotgandek. Shunday vaziyatda Uchinchi Renessans zarurati yuzaga kelishi shubhasiz.

— Renessans faqat qayta tiklanish emas, balki yangi tahliliy dunyoqarashning yuzaga chiqishi demakdir. Insoniyat bugun moddiy taraqqiyot bilan bir qatorda, ma’naviy inqirozga ham duch kelmoqda. Bunday sharoitda ilm, ma’rifat va falsafaga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortadi. Yurtimizda esa bu ehtiyojni qondirishga qaratilgan keng qamrovli jarayonlar, allaqachon, boshlangan. Xususan, o‘zbek allomalarning boy ilmiy merosi qayta o‘rganilmoqda, ta’lim va ilmiy tadqiqotlar o‘rtasidagi integratsiya kuchaymoqda. Ilmiy ishlanmalarda milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarini uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Renessans — jarayon. Ya’ni keng qamrovli shunday bir muhit vujudga keladiki, u yerda jamiyat rivojlanadi, ijtimoiy ong yuksaladi, ilm-fan, san’at va madaniyat jadal sur’atda gullab-yashnaydi.

Men Uchinchi Renessans poydevori deganda millatning ma’naviy kamolotga qaytishi, fikrlash madaniyatining yangilanishi va ilming hayotdagi bosh maqomini tiklashni tushunaman. Endi uyg‘onishning markazida faqat inson emas, balki inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi munosabat ham turadi.

— Sun’iy intellekt ilm-fanning o‘rnini bosadimi?

— Hozirgi kunda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalari jahon ilm-fanining eng muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Fanlar akademiyasi ham 2030-yilgacha mo‘ljallangan ilmiy rivojlanish dasturi loyihasida bu sohani strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi ko‘zda tutilgan. Bugungi kunda tizimdagi institutlar tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalari turli sohalarida joriy etilishi rejalashtirilgan. Masalan, astrofizikada o‘zgaruvchan yulduzlarni aniqlash, zilzilalarni prognoz qilishda intellektual modellar yaratish, quyosh energetikasida Big Data asosida samaradorlikni oshirish, energetika infratuzilmasini kibernetiklardan himoya qilish hamda tibbiyotda kasalliklarni bashorat qilish kabi muhim tadqiqotlar rejalashtirilgan. Shuningdek, yangi “aqlli” materiallarni modellashtirish, iqtisodiyot sohasidagi qaror qabul qilishni optimallashtirish va kompyuter tomografiyasi kabi aniq sohalarida ham sun’iy intellekt texnologiyalari amaliyotga joriy etiladi.

Bu borada yana bir qancha loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Ularda yangi materiallardan tortib, gidroelektrostantsiyalar, energiya ishlab chiqarish, uni optimallashtirish yoki yangi dori vositalarini kashf qilish uchun sun’iy intellektidan foydalanilgan dasturlarini o‘z ichiga oladi. Ilgari yillar davomida qayta-qayta tajriba o‘tkazish, xatolar va uni tuzatish usullari orqali natijaga erishilgan bo‘lsa, hozirgi kunda sun’iy intellekt yordamida buni juda tez amalga oshirish imkoni bor. Eng muhimi, bu ishlar orqali biz nafaqat yangi bilimlar yarataymiz, balki ularni startaplar, litsenziyalar va amaliy loyihalar orqali hayotga tatbiq etishga harakat qilaymiz. Bu esa O‘zbekistonning ilmiy va texnologik suverenitetini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Sun’iy intellekt, albatta, tahlil, prognozlash, tezkor qaror qabul qilish sohalarida juda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq u ilhom va intuisiyaning ma’naviy tanlovni almashira olmaydi. Shu sababli, u qanchalik rivojlanmasin, ilm-fanning ijodiy va insonparvarlik asosiga qurilgan maqomini egallab bera olmaydi.

— Yuqorida Uchinchi Renessans poydevori haqida fikr yuritdingiz. Bu nafaqat ilm va madaniyat, balki aql va texnologiya, inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi muvozanatni topish jarayonidir. Bu muvozanatni topish nima uchun muhim?

— Sun’iy intellekt insoniyat tarixida birinchi marta inson aqliga yaqin funksiyalarni bajarayotgan tizim sifatida yuzaga chiqmoqda. Uchinchi Renessans aynan insonning irodasi, axloqiy mas’uliyati va intellektual mustaqilligi orqali sun’iy intellektni boshqarishni o‘rganish jarayonini ham o‘z ichiga olishi kerak. Bu aqlni avtomatlashtirish emas, balki insonparvarlikka yo‘nalitirish, inson va mashina o‘rtasidagi aloqani boshqaruvchi falsafiy poydevor yaratish, tafakkur va global texnologiyalar o‘rtasida muvozanat topish demakdir.

Bir vaqtlar uss’endi markazida insonning o‘zi turgan yolg‘on esa inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi munosabat alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inson o‘z aqlini cheksiz imkoniyatga ega texnologiyalar — sun’iy intellekt orqali boyitishi mumkin, lekin bu jarayonga rahbarlik, yo‘lboshchilik qila olish ham muhim. Agar biz sun’iy intellektni faqatgina hisob-kitob vositasi sifatida ko‘rib, uni ma’naviyatdan uzilgan holda rivojlantirsak, kelajakda jamiyatda ma’naviy bo‘shliq, hatto inson qadrini tushinishda ham muammolar paydo bo‘lishi mumkin.

Shu bois, Renessans faqat ilm emas, balki insonni insonligicha saqlab qolish uchun kurashdir. Bu uyg‘onishni to‘liq amalga oshirish uchun bizga faqat texnologiya emas, balki teran tafakkur, mustahkam falsafa va ma’naviy mas’uliyat kerak.

Ilm — millat qudrati, fikr — taraqqiyot mehvari. Agar biz jamiyat sifatida ilgma suviansak, ma’rifatni qadrlasak, har qanday qiyinchiliklarga yo‘l topamiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

